


## 2018 yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Hozirgi vaqtda xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda ba'zan uchlamchi sektor deb ataluvchi xizmatlar sohasi mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.


2019 yil 1 yanvar holatiga, 323,5 ming faoliyat ko'rsatayotgan tashkilot va korxonalaridan 213 mingga yaqini xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatmoqda.

### 2019 yil 1 yanvar holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotganlarining ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot va korxonalar umumiy sonida 153 mingdan ortig'i kichik tadbirkorlik sub'ektlari hisoblanadi. 2019 yil 1 yanvar holatiga ularning ulushi 72,2 % ni tashkil etdi.

**2019 yil 1 yanvar holatiga  
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, %  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




2019 yil 1 yanvar holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (33,3 %) yuqori ulushni egallaydi.

Yaqin va uzoq xorij davlatlari bilan, shuningdek turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 9,3 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 6,2 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,3 % ga teng bo'ldi.

**2019 yil 1 yanvar holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,2 % ni tashkil etdi.

**Ma'lumot uchun:** 2018 yil 1 yanvar holatiga, xizmatlar sohasida 191,2 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida eng katta qismini savdo xizmatlari (33,0 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (9,0 %), tashish va saqlash (6,3 %), axborot va aloqa (3,3 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (3,1 %) tashkil etadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 146836,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,4 % ni tashkil etdi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida transport xizmatlari (29,5 %), savdo xizmatlari (26,9 %), moliyaviy xizmatlar (14,4 %) hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining ulushi (6,6 %) ustunlikka ega.

### 2018 yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar tarkibi, %



2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 28,2 trln. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2018 yil yanvar-noyabr oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 14,1 trln. so'mga ko'paydi.

## 2018 yilda ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, trln. so'm



Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga transport xizmatlari (3,9 trln. so'mga), savdo xizmatlari (3,6 trln. so'mga), moliyaviy xizmatlar (2,3 trln. so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (0,9 trln. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.


**Ma'lumot uchun:** 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan transport xizmatlari 7,3 trln. so'm, savdo xizmatlari - 7,4 trln. so'm, moliyaviy xizmatlar - 6,2 trln. so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 1,5 trln. so'mga oshgan.

## 2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>146 836,3</b>	<b>108,4</b>
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	9 744,1	115,6
moliyaviy xizmatlar	21 192,6	125,8
transport xizmatlari	43 329,2	103,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	21 421,3	102,4
yashash va ovqatlanish xizmatlari	4 420,5	104,7
savdo xizmatlari	39 445,3	104,2
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	4 689,2	103,3
ta'lim sohasidagi xizmatlar	5 422,5	110,7
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	2 053,0	114,9
ijara xizmatlari	3 129,9	107,6
kompyuterlar va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	2 628,0	104,1
shaxsiy xizmatlar	3 743,6	102,8
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	2 306,4	128,9
boshqa xizmatlar	4 732,0	106,9

Eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (128,9 %), moliyaviy xizmatlar (125,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (115,6 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (114,9 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (110,7 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.


### 2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari shaxsiy xizmatlar (102,8 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (103,3 %) va transport xizmatlari (103,9 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining deyarli uchdan bir qismini transport xizmatlari tashkil etadi. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida uning ulushi 29,5 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni savdo xizmatlari (26,9 %), moliyaviy xizmatlar (14,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,6 %) egallaydi.

### 2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi






O'zbekiston Respublikasi transportining samarali ishlashi modernizatsiyalash, innovatsion rivojlanish yo'llariga o'tish va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi uchun sharoit yaratishda muhim ahamiyatga egadir.

Transport xizmatlari tarkibida etakchi o'rinni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (49,4 %) egallaydi. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida quvurlar orqali tashish xizmatlarining ulushi 17,2 % ni tashkil etdi. Temir yo'l transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar transport xizmatlari umumiy hajmida 13,6 % ni egallaydi.

### 2018 yil yanvar-dekabr oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %



Yuk va yo'lovchilarni havo transportida tashish bo'yicha xizmatlar ulushi transport xizmatlari umumiy hajmining 11,5 % ni tashkil etadi.

Yordamchi transport faoliyatining ulushi transport xizmatlari umumiy hajmida 8,3 % ga yetdi.


**Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining ma'lumotlariga ko'ra mamlakatimizda yuklarni tashish uchun elektron platforma yaratiladi. Toshkent shahridagi Inha universiteti hamda "O'zavtotrans" agentligi birgalikda xalqaro multimodal transport-logistika markazining elektron platformasini yaratish to'g'risidagi loyihani ishlab chiqish borasida qaror qabul qildi.**

*Loyihada yuklarni eksport-import qilishda transportda tashish bilan bog'liq ma'lumotlarni to'plash, ishlov berish va tahlil qilish, eksport-import yuklarni tashishda transportda tashish va omborga joylashtirishni qulaylashtirish, transport xarajatlarini qisqartirish, kelishtirish hisobiga yetkazib berish va ombor operatsiyalarining samaradorligini oshirish, logistika jarayonini barcha ishtirokchilarning aniq hisob-kitoblar va oqilona harakatlar yagona elektron platformasini yaratish ko'zda tutilgan.*  
<http://mitc.uz>.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 21421,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning o'sishi 2,4 % ga oshdi.

Eng yuqori ulush Toshkent shahri (17,0 %), Toshkent (13,6 %), Samarqand (11,7 %), Farg'ona (9,1 %), Andijon (8,6 %), Buxoro (7,4 %) va Qashqadaryo (7,2 %) viloyatlariga to'g'ri keladi.

### 2018 yil yanvar-dekabr oylarida avtotransport xizmatlarining umumiy hajmida hududlarning ulushi, %




Sirdaryo viloyatida avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ulushi (1,7 %) qayd etildi.

Yo'lovchi tashish avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmida salmoqli qismini egallaydi. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 71,8 % ga yetdi.

Avtotransportda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 28,2 % ni tashkil etdi.

### Tashish turlari bo'yicha ko'rsatilgan avtomobil bozor xizmatlarining tarkibi, %



2018 yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 39445,3 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 26,9 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 7439,3 mlrd.so'mga oshdi.

Savdo xizmatlarining eng katta hajmi Toshkent sh. (12788,3 mlrd. so'm), Toshkent (3569,9 mlrd. so'm), Samarqand (3024,6 mlrd. so'm), Farg'ona (3011,0 mlrd. so'm), Andijon (2705,5 mlrd. so'm), Qashqadaryo (2337,0 mlrd. so'm) va Surxondaryo (2246,3 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi.

### 2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha savdo xizmatlarining hajmi, mlrd. so'm



Savdo xizmatlarining eng past ko'rsatkichi Sirdaryo viloyatida kuzatildi. Ushbu hududda savdo xizmatlari hajmi 632,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Aholi daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi hajmi o'smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, 2018 yil yanvar-dekabr oylarida uning ulushi 67,7 % ni tashkil etadi.

### 2018 yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 25,5 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 6,8 % ni egallaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun zarurdir.


Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hokimiyat va tadbirkorlik bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtiradigan hamda tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 9744,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ularning o'sishi 15,6 % ni tashkil etdi.

Yuqori o'sish sur'atlari Toshkent (128,5 %), Samarqand (113,5 %), Buxoro (113,5 %), Surxondaryo (113,3 %), Qashqadaryo (112,9 %) viloyatlari va Toshkent shahrida (118,6 %) qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'ati Qoraqalpog'iston Respublikasi (107,7 %) va Sirdaryo (107,9 %) viloyatida qayd etildi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish  
xizmatlarining o'sish sur'ati, %





Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 84,5 % ni tashkil etadi.


**2018 yil yanvar-dekabr oylarida  
aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %**



Hududlar orasida telekommunikatsiya xizmatlarining yuqori o'sishi Toshkent viloyati (30,5 %) va Toshkent shahrida (20,0 %) qayd etildi.

Telekommunikatsiya xizmatlarining uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Qoraqalpog'iston Respublikasi (107,6 %) va Sirdaryo (107,8 %) viloyatida qayd etildi.


**2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha  
telekommunikatsiya xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga investitsiyalar jalb qilinishini ko'paytirish butun dunyoda raqamli o'zgarishni rag'batlantiradi va ko'plab odamlarga AKT xizmatlari, xususan, mobil aloqa xizmatlari va Internet tarmog'idan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Bugungi kunda, mobil aloqa xizmatlaridan asosan aholi (jismoniy shaxslar) foydalanishadi. Ularning ulushi 97,5 % ni tashkil qiladi. Mobil aloqa xizmatlaridan foydalanishda yuridik shaxslarning ulushi 2,5 % ni tashkil etadi.


### Mobil aloqa abonentlari tarkibi, %



Pul-kredit siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini o'sishiga turtki bo'lmoqda.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 21192,6 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 125,8 % ni tashkil etdi.

### 2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati



Moliyaviy xizmatlarning yuqori o'sish sur'atlari Jizzax (152,1 %) viloyatida kuzatildi.

Nisbatan past o'sish sur'ati Toshkent shahrida – 117,2 % qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar katta salmoqqa egadir. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida uning ulushi 89,2 % ni tashkil etdi.

**2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi, %**



Hududlar orasida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar bo'yicha eng yuqori ulushni Surxondaryo (91,9 %), Qashqadaryo (91,6 %), Sirdaryo (91,4 %), Jizzax (91,3 %), Samarqand (91,3 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi (91,6 %) egallaydi. Eng past ko'rsatkich Buxoro viloyatida (86,9 %) qayd etildi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar (96,8%) tashkil etadi.

**2018 yil yanvar-dekabr oylarida  
sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan  
tashqari moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %**



**Ma'lumot uchun:** 2018 yilning dekabrda **Fitch Ratings** va **Standard & Poor's** reyting agentligi O'zbekistonga suveren kredit reytingini birinchi marta taqdim qilishdi. Har ikkala agentlik ham barqaror prognoz bilan uzoq muddatli "BB-" va qisqa muddatli "B" darajadagi reytingini berishdi.

**Fitch Ratings** ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonning reytinglarida bir tomondan yaxshi suveren muvozanat, past davlat qarzlari va solishtirma reytingga ega bo'lgan mamlakatlar bilan taqqoslaganda yuqori o'sish tarixi, boshqa tomondan esa xom ashyo sektoriga sezilarli darajada qaramligi, yuqori inflyatsiya va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YalMning past darajadagi tarkibiy kamchiliklari va solishtirma reytingga ega emitentlarga nisbatan institutsional muhit va boshqaruv sifatining zaif darajalari aks ettirilgan.

[www.standardandpoors.com.](http://www.standardandpoors.com.), [www.fitchratings.com.](http://www.fitchratings.com.)

Bugungi kunda o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod metodik materiallari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 5422,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilga nisbatan o'sish 10,7 % ni tashkil etdi.

## 2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati




Andijon viloyati	100,0 %
Toshkent sh.	104,4 %
Samarqand viloyati	107,9 %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	109,4 %
Jizzax viloyati	111,7 %
Surxondaryo viloyati	113,4 %
Navoiy viloyati	113,6 %
Toshkent viloyati	113,6 %
Namangan viloyati	114,2 %
Farg'ona viloyati	122,5 %
Xorazm viloyati	122,8 %
Qashqadaryo viloyati	127,6 %
Buxoro viloyati	129,8 %
Sirdaryo viloyati	137,6 %



Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 4420,5 mlrd. so'mga yetdi. 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,7 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 3,0 % ga teng bo'ldi.



### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibining taqqoslanishi, %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 81,2 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 18,8 % ga to'g'ri keladi.

2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan yashash bo'yicha xizmatlar ulushining ko'payish omillaridan biri respublikada turizm faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi. Jahonga mashhur tarixiy yodgorliklar, zamonaviy shaharlar, O'zbekistonning betakror tabiati, noyob milliy taomlari, shuningdek, xalqimizning betakror mehmondo'stligi sayohatchilarni o'ziga jalb qiladi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, yashash bo'yicha xizmatlarning ulushi 0,8 f.p.ga oshgan.

**2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha  
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**


	<b>Hajmi, mlrd. so'm</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</b>
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>146836,3</b>	<b>108,4</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4464,9	113,0
viloyatlar:		
Andijon	7979,8	108,5
Buxoro	6439,8	107,7
Jizzax	3168,4	113,4
Qashqadaryo	6975,9	107,2
Navoiy	3822,1	111,8
Namangan	6023,8	108,8
Samarqand	9906,3	107,8
Surxondaryo	5490,7	109,8
Sirdaryo	1941,1	109,7
Toshkent	10959,1	106,4
Farg'ona	9120,6	108,5
Xorazm	4403,5	108,5
Toshkent sh.	48361,8	110,6

Hududlar o'rtasida Toshkent shahri (48361,8 mlrd.so'm) etakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Toshkent shahri bo'yicha 110,6 % ni tashkil etdi.

Eng kichik hajm Sirdaryo (1941,1 mlrd. so'm), Jizzax (3168,4 mlrd. so'm) va Navoiy (3822,1 mlrd. so'm ) viloyatlarida kuzatildi.

2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, 2018 yil yanvar-dekabr oylarida eng yuqori o'sish sur'atlari Jizzax (113,4 %), Navoiy (111,8 %) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi (113,0 %) va Toshkent shahrida (110,6 %), qayd etildi.


**2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Toshkent (106,4 %), Qashqadaryo (107,2 %), Buxoro (107,7 %) va Samarqand (107,8 %) viloyatlarida kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

### 2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, %



Hududlar o'rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Toshkent shahri (32,9 %), Toshkent (7,5 %), Samarqand (6,7 %), Farg'ona (6,2 %) va Andijon (5,4 %) viloyatlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Sirdaryo (1,3 %), Jizzax (2,2 %), Navoiy (2,6 %), Xorazm (3,0 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasiga (3,1 %) to'g'ri keladi.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda. 2018 yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 417,6 ming so'mga hajmi oshib, 4455,6 ming so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan farq 794,3 ming so'mni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkich hududlar o'rtasida Toshkent shahrida 19439,6 ming so'mdan Surxondaryo viloyatida 2160,2 ming so'mgacha oralig'ida bo'ladi. Ushbu mintaqada aholi jon boshiga ko'rsatkichi nisbatan pastligi bu hududda aholi sonining yuqori ko'rsatkichlariga bog'liqligidir. Taqqoslash uchun: garchi Navoiy viloyatida aholi soni (966,2 ming kishi) uncha ko'p bo'lmasada, biroq aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi nisbatan yuqori, ya'ni u 3955,8 ming so'mga teng.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining maksimal o'sishi Qoraqalpog'iston Respublikasi (11,4 %), Jizzax (11,2 %), Navoiy (10,0 %) viloyatlari va Toshkent shahrida (8,7 %) qayd etildi.

Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari (105,1 %) kuzatildi.

**2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar**



Kelajakda xizmatlar sohasini keng qamrovli rivojlantirishda aholi turmush darajasini oshirish, samarali bandligini va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash dolzarb masalalar hisoblanadi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi**

**71-230-80-59**

**71-230-80-60**